



O'QUVCHILARNING NUTQIY MULOQOT KOMPETENSIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJLARI

Xalikova Shaxnozaxon Azimjonovna ¹

¹ Andijon mashinasozlik instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5830556>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 10-Dekabr 2021

Chop etildi: 15-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Kompetensiya, nutqiy muloqot, so'zlovchi, ikkinchi "men", adresant, adresat, komponentlar.

ANNOTATSIYA

Umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, ona tilini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish, o'zbek tilining sohada qo'llanishini fan sifatida o'qitish zarur masalalardan biridir.

Usullari. Ushbu maqolada o'quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasiga bo'lgan ehtiyojlari va unga qo'yiladigan talablar namunaviy misollar bilan yoritilgan. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda noan'anaviy usullardan foydalanilgan.

Natijalari. Bu usullar orqali o'quvchilarning ham nutqini o'stiruvchi, ham jamoat joylarida o'zini qanday tutishni o'rgatuvchi vaziyatlar tahlil qilindi. O'quvchilarning o'zini chetdan nazorat qila olishi yoki muloqotga kirishayotganda o'zini qay darajada idora qila bilishi muhim ekanligi e'tirof etildi.

Xulosa. Bugungi kunda ona tili ta'limiga qo'yilayotgan talablarni inobatga olgan holda darslarni noan'anaviy usullarda tashkil etish orqali ko'zlangan natijalarga erishish yanada tez va qulay amalga oshadi. O'quvchilarda muloqot

madaniyati shakllanadi. O'z nutqini o'zgarlar oldida erkin bayon eta olish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish bajarilishi muqarrar bo'lgan vazifalarning eng muhim omiliga aylanib ulgurgan. Ayniqsa, Predentimiz Shavkat Mirziyoevning ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi renessans poydevorini yaratishni asosiy maqsad qilib belgilaganligi ta'lim sohasiga aloqador bo'lgan har bir shaxsni befarq qoldirmasligi kerak. Bu borada olib borilayotgan islohotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan tortib umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatlariga qadar ta'sir etadi.



Shunday ekan, umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, ona tilini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish, o'zbek tilining sohada qo'llanishini fan sifatida o'qitish zarur masalalardan biridir.

Bilamizki, har bir fanni o'zlashtirish, avvalo, ona tilimiz orqali amalga oshadi. Hattoki, oila davrasida bo'ladimi yoki jamoat joyidami har bir inson o'z ona tilida muloqot qilishga ehtiyoj sezadi. Va aynan kishining muomalasi va nutq madaniyati o'sha shaxs uchun ma'lum baho berilishiga sabab bo'ladi. Demakki, ta'lim maskanlarida ona tili darslarida eng avvalo o'quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasiga alohida ahamiyat qaratilmog'i lozim.

Kompetensiya – (lotincha *competo* – erishyapman, munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba bo'lib, uning turlari juda ko'p. Biroq nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish baribir dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Chunki muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinda turadigan va u insondagi eng muhim ehtiyojni, ya'ni jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradigan vositadir. Bu esa umumta'lim maktabi o'quvchilari uchun ham ahamiyati kattadir.

Muloqotning turli shakllari va bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T.Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: "Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi", – deb to'g'ri ta'kidlagan edi. Bugungi kunda ham o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish ijobiy samara

beradi. Ilhom Qahhorovda ham shu kabi fikrlarning guvohi bo'lamiz, uning "Notiqlik san'ati" kitobida yozilishicha, ustamon notiq bunday fikrlaydi: "Xo'sh, bugun juda bo'sh ma'ruza qildim. Nega? Birinchidan, ma'ruzani cho'zib yubordim. Ikkinchidan, ko'pchilik tushunmaydigan atamani ko'p qo'lladim. Uchinchidan, odamlar charchaganda mavzuni almashtirmadim. To'rtinchidan, ko'z muloqotini faqat markazdagilar bilan o'rnatib, chetdagilarga e'tibor qaratmadim. Beshinchidan, ma'ruzaning oxirgi qismini mujmal va zerikarli yakunladim. Xo'sh, endi xatolarimni angladim. Keyingi ma'ruzaga shunday tayyorlanayki, hamma qoyil qolsin!"¹

Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida ijobiy holat bo'lishi kerak. Ya'ni o'zini chetdan nazorat qila olishi yoki muloqotga kirishayotganda o'zini qay darajada idora qila bilishi muhim hisoblanadi. Aks holda ba'zi o'quvchi yoshlarda o'zini nazorat qila olmaslik natijasida chalama-chatti nutq, yoki haddan ortiq tortinchoqlik kuzatilishi mumkin. Bu holatlarda nafaqat dars mavzuni o'qib so'zlash, balki oddiygina do'stlar davrasida kirishimlilik ham yo'qoladi.

Tahlillar va natijalar.

Har narsaning me'yori bo'lgani yaxshi. Agarda o'quvchilar o'zi bilan o'zi muloqot qilishni odat qilib, doimo jamiyatdan o'zini tortib yursa, u suhbatdoshlar orasida jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Quyida bu haqida ham misollar keltiramiz.


"Ma'lumki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi zaruriy komponentlar sifatida albatta ishtirok etadi", – deydi tilshunos olim S.Mo'minov.

¹Qahhorov I. Notiqlik san'ati. – T.: "Turon zamin ziyo", 2015. – B. 15.



Unga ko'ra, so'zlovchi adresant, adresatning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi esa adresat deb yuritiladi.² Ya'ni muloqot jarayoni kamida ikki kishi o'rtasida yuz beradi. Lekin ba'zan yu'orida ta'kidlaganimizdek, inson o'z-o'zi bilan – ikkinchi “men” bilan gaplashishni oshirib yuborsa, muloqotning bu turida so'zlovchi va tinglovchi tushunchasi birlashib ketadi.

Buni S.Mo'minov quyidagi chizma orqali ko'rsatib bergan:³



Shu o'rinda televidenie orqali namoyish etilgan “Miyasorubkangiz o'zingizga buyursin!” hajviyasini misol tariqasida keltirmoqchiman: “Bir kuni Shoqosimning chuchvara egisi kelib qoldi. Uyida ayoli yo'qligi sababli uni o'zi tayyorlashga ahd qildi. Ozginagina xamir olgach, qiymaga uringan Shoqosim birdan uyida miyasorubkasi yo'qligi esiga tushib, yuqori qavatda yashaydigan qo'shnisi Lolaxonnikiga yo'l oldi. Eshik qo'ng'irog'ini bosdi va qo'shnisi chiqqunga qadar biroz xayol surdi.

(Hozir qo'shnim chiqsa, miyasorubkangizni berib turing, desam. U, nimaga?, desa. Chuchvara qilmoqchiydim, desam. Menga ham chuchvarangizdan berasizmi?, desa. Men, o'zi ozgina qilayotgandim, sizga berolmayman, desam. Unda men ham sizga miyasorubkamni berolmayman, desa. Men, o'zingiz

chuchvara tayyorlab yesangiz o'lasizmi!?, desam. U ham menga, o'zingiz miyasorubka sotib olsangiz o'lasizmi!?, desa...)

Xuddi shu payt orasta kiyingan, ochiq yuzli bir ayol qo'li ko'ksida tabassum bilan dedi:

- Assalomu alaykum, xizmat?
- Miyasorubkangiz o'zingizga buyursin!

Shoqosimning jahl bilan qo'shnisiga birinchi va oxirgi aytgan gapi ham shu bo'ldi”.

Hayotda ko'pincha uchrab turadigan shu va shunga o'xshash holatlar suhbatdoshlik san'atiga putur etkazadi. Ayniqsa, umumta'lim maktabi o'quvchilari orasida ham dars jarayonlarida hardamxayollik kuzatiladi. Ayni shu daqiqalarda o'qituvchidardan yuqori malaka va yuksak mahorat talab etiladi. Mana shu vaziyatdan bolani olib chiqish uchun darslarda noan'anviy usullardan foydalangan holda ta'limni to'g'ri tashkil etish kerak. O'quvchilarning ham nutqini o'stiruvchi, ham jamoat joylarida o'zini qanday tutishni o'rgatuvchi shunday usul qo'llash mumkinki, buni soddaroq va qiziqarliroq bo'lishi uchun “Suxandonlik o'yini” deya nomlash o'rinli bo'ladi.

Bunda vazifa sifatida topshirilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar tayyorlanib keladilar va jonli ko'rsatuv tarzida havola etadilar. Vazifalar turlicha bo'lishi mumkin:

Masalan, bir o'quvchi o'ziga yoqqan adib (shoir, yozuvchi, olim) sifatida dastur mehmoni bo'lib tashrif buyuradi. Yana bir o'quvchi esa undan intervyu oladi. Buning uchun esa har ikkala o'quvchi ham mazkur mavzuga chuqur tayyorgarlik ko'rib yondashmog'i lozim bo'ladi. Eng sara savollarni izlab topa bilish mahorati suxandondan va mavzudan chetga chiqmagan holda o'z fikrini to'g'ri ifodalab

²Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Avtoreferati, – T., 2000, – B. 9.

³Mo'minov S. O'shaasar. – B. 23.



javob berish dastur mehmonidan talab etiladi. Tinglovchi o'quvchilar esa o'z navbatida ularga baho beradi va kamchiliklarni kuzatib boradi. Natijada esa hamma barobar mavzuni yaxshi o'zlashtirishga muvassar bo'ladi va o'quvchilarda zerikish va hardamxayollik bo'lmaydi. Namuna:

1-o'quvchi: Assalomu alaykum, hurmatli tinglovchilar! Yana sizlar bilan "Diydor" ko'rsatuvi orqali suhbatlashib turganimizdan benihoya xursandmiz. Tanishing, bugungi dastur mehmonimiz, el sevgan yozuvchi, ardoqli adib 1941-yil 5-avgustda Toshkentning Do'mbirobod mahallasida ishchi oilasida tug'ilgan O'tkir Hoshimov bo'ladilar. Dasturimizga xush kelibsiz!

2-o'quvchi: Vaalaykum assalom, rahmat.

1-o'quvchi: Dastlab qayerda ta'lim olgansiz?

2-o'quvchi: Men o'rta maktabni bitirgach, 1959-1964- yillar mobaynida ToshDUning filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida o'qiganman.

1-o'quvchi: Qayerda ishlagansiz?

2-o'quvchi: "Toshkent haqiqati", "Toshkent oqshomi" kabi ro'znomalarda, G'afur G'ulom nashriyotida ishlaganman. 1985- yildan boshlab "Sharq yulduzi" jurnalida Bosh muharrir bo'lib ishlaganman...

Dars shu tariqa davom etadi. Umumta'lim maktabi o'quvchilari uchun bu jarayon bir qiziqarli mashg'ulot sifatida ularni jalb qila oladi. Qolgan o'quvchilar ham darslikdan tayyorlab kelgan savollari bilan murojaat qiladi. Bu vaziyat birinchi navbatda bolani darsga mas'uliyat bilan yondashishga va har bir sanalarni alohida ahamiyat bilan o'zlashtirishga majbur etadi. Eng asosiysi ularda muloqot madaniyati shakllanadi. O'z nutqini o'zgarar oldida erkin bayon eta olish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Bugungi kunda ona tili ta'limiga qo'yilayotgan talablarni inobatga olgan holda darslarni noan'anaviy usullarda tashkil etish orqali ko'zlangan natijalarga erishish yanada tez va qulay amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Avtoreferati, – T., 2000. – B. 9.
2. Qahhorov I. Notiqlik san'ati. – T.: "Turon zamin ziyo", 2015. – B. 15.